

**MAVZU: KORRUPSIYAGA
QARSHI KURASHNING
JAHON TAJRIBASI**

A.S.Ravshanov

REJA

- **1. Korrupsiyani kelib chiqish tarixi.**
- **2. Korrupsiyani kelib chiqish sabablari.**
- **3. Korrupsiyaga qarshi kurashda rivojlangan mamlakatlar tajribasi.**

Korrupsiya tarixi

Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tiladi. Korrupsiya bizning kunlarga yetib kelganligi shundan dalolat beradiki, boshqa illatlar kabi, uni ham tag-tugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan o'arb davlatlari ham korrupsiyadan butkul xalos bo'lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Korrupsiya tarixi

Qur'oni karimda poraxo'rlik bevosita taqiqlanadi: “Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo‘l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang”
(Baqara surasi, 188).

Korrupsiya tarixi

Lekin shunga qaramay, poraxoʻrlik Usmoniylar xalifaligida ham mavjud boʻlgan. Avvaliga xalifa turli idoralar faoliyatini shaxsan oʻzi nazorat qilardi, lekin vaqt oʻtishi bilan bu ishni oʻziga yaqin odam — xalifaning turli ishlar boʻyicha shaxsiy yordamchisi boʻlgan vazirga topshirib qoʻydi. Vaqt oʻtishi bilan vazirlar keng tarmoqli davlat apparatini shakllantirdi. X asrning oʻrtalariga kelib, u yoki bu lavozimga tayinlanish uchun amaldorlar tomonidan vazirlarga pora berish amaliyoti shakllanib boʻlgandi.

Korrupsiya tarixi

Masalan, xalifa Muqtadirning vaziri bo'lgan Ubaydulloh Hoqoniy (926-yil vafot etgan) amaldorlarni turli lavozimlarga tayinlash va olib tashlashda faol foydalandi.

Pulga qattiq muhtojlik se-zayotgan davlat soliqlar to'plashni xususiy shaxslarga topshirgani bois bu turli suiiste'molliklarni yuzaga keltirardi. Shu tariqa poraxo'rlik xalifalik tanazzulga yuz tutishining sabablaridan biriga aylandi.

Korrupsiya tarixi

Bu holat Usmoniylar saltanatida ham istisno emasdi. Xususan, dehqonlardan turli soliqlarni to‘plashda harbiy xizmatchilar qing‘irliklar sodir etardi. Bu suiiste‘mol holatlarini hattoki Usmoniylar saltanati shayxulislomlari chiqargan maxsus fatvolar ham bartaraf qila olmadi.

Sipohilar nimadir “uzatish” evaziga asta-sekinlik bilan harbiy yurishlarga bormay qo‘ydi, o‘zlariga taqdim etilgan yerlarda muqim qolib, amalda davlat mulkini shaxsiy mulk qilib olishdi. Davlat esa, o‘z navbatida, vazirlar timsolida ko‘ngilsiz reaksiyadan xavfsiragan holda, harbiylar bilan to‘qnashuvga borishdan hadiksirardi.

Korrupsiya tarixi

Usmoniylar saltanatida poraxoʻrlik oqibati shu boʻldiki, qoʻshinlar harbiy tayyorgarligini yoʻqotdi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator magʻlubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi.

Xullas, qadim zamonlardayoq ushbu illatga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ham koʻngildagidek natija bermagan.

“Hokimiyatni pulga sotib olganlar undan foyda olishni istaydi”, degan edi faylasuf Arastu.

Qadimgi Grek faylasufi yashab o‘tgan davrdan beri qancha suvlar oqib o‘tdi. Ammo korrupsiya bilan bog‘liq muammo o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Buning ustiga unga qarshi kurashishda samarali qurol ham yaratilmagan.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab korrupsiya xalqaro muammolardan biriga aylandi. Korrupsiya bilan bogʻliq muammo Evropada ham saqlanib qolmoqda.. Tahlilchilarning fikricha, “koʻhna qitʼa”dagi korrupsiya har yili Evropa iqtisodiyotiga 120 milliard evro miqdorida zarar etkazadi.

Korrupsiya nima?

Korrupsiya — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Tadqiqotchilar korrupsiyaning asosiy sabablari sifatida to'rtta omilni ko'rsatadilar.

- ❖ **Birinchisi - iqtisodiy sabablar.** Bu haqda, muhtaram Prezidentimiz o'zlarining chiqishlarida ko'p marotaba so'z yuritib keladi. Korrupsiyaning bu ko'rinishi ijtimoiy va iqtisodiy hayotni bevosita ma'muriy yo'l bilan boshqarishga intilgan hokimiyat va byurokratiyaning mavqei baland bo'lgan davlat sharoitida rivoj topadi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan o'rnatilgan turli xildagi cheklashlar, amaldorlarning keng, nazoratdan xoli, cheklanmagan yoki ruxsat berish, yoki taqiqlash vakolati korrupsiyaga zamin yaratadi. Shu bilan bog'liq holda, yirik mablag'larga ega bo'lgan ayrim ishbilarmonlar o'z daromadlarini ko'paytirish maqsadida va raqobatda alohida imtiyozlarga ega bo'lish uchun hukumat amaldorlarini pora evaziga sotib olib, ularni o'z ixtiyorlariga bo'ysundirishga intiladilar.

- ◆ **Ikkinchisi - huquqiy sabablar.** Korrupsiyaning rivoji qonunlarning sifatiga bog'liqdir. Mukammal bo'lmagan qonunlar ishlamaydi va ayrim uddaburonlar bundan ustalik bilan foydalanadilar.
- ◆ **Uchinchisi - institutsional sabablar bo'lib,** ularga avvalo, davlat boshqaruvi tizimidagi nuqsonlar, demokratik institutlarning kuchsizligi, shuning natijasida, hukumat faoliyatining yopiqligi yoki fuqarolik nazoratidan xoliligi kiradi.
- ◆ **To'rtinchisi - ijtimoiy sabablar yoki jamiyatdagi muhit,** aholining huquqiy bilimi, madaniyat darajasi, ma'naviyati, uyushqoqligi va jamoat faolligi pastligi kabi omillardir.

Korrupsiya urug'i quriyotgan Daniyadan
nimalarni o'rganish mumkin?



AQSHning korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasining yana bir muhim qoidasi bu – mansabdor shaxsning sovg‘a olishiga nisbatan taqiq qo‘yilganligidir. Qoidaga muvofiq, barcha davlat idorasi xodimlarining bir kalendar ish yili mobaynida umumiy qiymati 100 AQSH dollardan oshadigan sovg‘alarni qabul qilishi taqiqlanadi (AQSH Kongressi xodimlari 250 AQSH dollargacha). Bundan tashqari, Ma‘muriy axloq qoidalariga binoan, sayohat bileti shaklida sovg‘a olishga ham cheklov bor. Bunda, mamlakat ichida sayohat qilishda 3 kun (ikki kecha), chet elga esa, 7 kungacha (olti kecha) chegara belgilangan. Bunday cheklov hattoki senatorning oila a‘zolariga ham tatbiq qilinadi.

◇ Shuningdek, Buyuk Britaniyada xodimlarning tengligi va ish haqi to‘lanishida shaffoflikka erishish maqsadida “Rahbar xodimlar ish haqini tekshirish organi (Review Body on Senior Salaries)” tashkil etilgan. Ushbu organ yuqori lavozimli davlat xizmatchilari, sud tizimi, harbiylar, politsiya xodimlari va Angliya sog‘liqni saqlash xizmatining yuqori martabali xodimlari uchun mehnatga haq to‘lash borasida maslahat beradi.

SINGAPUR: KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH TAJRIBASI

SINGAPUR
KORRUPSIYANI
QANDAY YENGDI?



AYBDORLIK PREZUMPSIYASI



1960 yildagi qonun bilan Singapurda barcha davlat xizmatchilariga nisbatan korrupsiya bo'yicha aybdorlik prezumpsiyasi joriy etilgan. Bu shuni anglatadiki, davlat xizmatchisi o'zining maoshi yetmaydigan xarajatlarga qo'l ursa yoki mol-mulkka egalik qilsa, u o'z harakatining qonuniy ekanini isbotlab bermaguncha aybdor hisoblanadi va tergovga jalb etiladi. Tergov yakunida davlat xizmatchisini jinoiy javobgarlikka tortish uchun dalillar yetarli bo'lmasa va shu bilan birga, uning korrupsiyaga yo'l qo'ygani bo'yicha ayrim ma'lumotlar mavjud bo'lsa, bunday holatda unga nisbatan intizomiy jazo qo'llanardi.

E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!